

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti

professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI XALQARO BOSHQARUV INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH

Djurayeva Iroda Bahrom qizi
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“International School of Finance Technology and Science” instituti iqtisodiyot va kompyuter injiniringi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: ibrohimsofiya2022@gmail.com
ORCID: 0009-0006-5614-8591

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda 2016–2025-yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar samaradorligi Korrupsiyani idrok etish indeksi va Jahon boshqaruv indikatorlari ma’lumotlari asosida baholangan. Qoidalarni ishlab chiqish va ularni ijro etish sifati o‘rtasidagi tafovut aniqlangan, islohotlarning navbatdagi ikkinchi bosqichida ustuvor bo‘lishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar ilmiy jihatdan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *institutsional islohotlar, institutlar sifati, Jahon boshqaruv indikatorlari, Korrupsiyani idrok etish indeksi, qonun ustuvorligi, tartibga solish sifati, institutsional tuzoq, ijro bo‘shlig‘i.*

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИНДИКАТОРОВ УПРАВЛЕНИЯ

Джураева Ирода Бахром кизи
доктор философии по экономическим наукам (PhD)
старший преподаватель кафедры «Экономика и компьютерный инжиниринг» института «International School of Finance Technology and Science»
E-mail: ibrohimsofiya2022@gmail.com, тел.: [telefon]
ORCID: 0009-0006-5614-8591

Аннотация. *В статье оценивается эффективность институциональных реформ, проведённых в Узбекистане в 2016–2025 годах, на основе данных Индекса восприятия коррупции и Мировых индикаторов управления. Выявлен разрыв между качеством разработки правил и качеством их исполнения, научно обоснованы приоритетные направления второго этапа реформ в стране.*

Ключевые слова: *институциональные реформы, качество институтов, мировые индикаторы управления, индекс восприятия коррупции, верховенство закона, качество регулирования, институциональная ловушка, разрыв исполнения.*

ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INSTITUTIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN USING INTERNATIONAL GOVERNANCE INDICATORS

Djurayeva Iroda Bahrom qizi
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Senior Lecturer, Department of Economics and Computer Engineering,

International School of
Finance Technology and Science
E-mail: ibrohimsofiya2022@gmail.com
ORCID: 0009-0006-5614-8591

Abstract. *The article assesses the effectiveness of Uzbekistan’s 2016–2025 institutional reforms using the Corruption Perceptions Index and the Worldwide Governance Indicators. It identifies a gap between the quality of rule-making and rule enforcement and justifies priorities for the second stage of reforms.*

Keywords: *institutional reforms, quality of institutions, Worldwide Governance Indicators, Corruption Perceptions Index, rule of law, regulatory quality, institutional trap, enforcement gap.*

Kirish

Iqtisodiy o‘sish manbalarini izohlashda eng ko‘p tasdiqlangan g‘oyalardan biri “institutlar muhim” degan xulosadir. D. Nort institutlarni jamiyatdagi o‘yin qoidalari deb ta’riflab, ular ayirboshlash xarajatlarini va iqtisodiy samaradorlikni belgilashini ko‘rsatgan [1]. D. Adjemoglu, S. Jonson va J. Robinson institutlar sifatidagi farqlar mamlakatlar daromadlaridagi tafovutning asosiy qismini tushuntirishini isbotlagan [3].

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab institutsional islohotlar davlat siyosatining markaziy yo‘nalishiga aylandi. Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida valyuta bozori liberallashtirildi, soliq tizimi soddalashtirildi, tadbirkorlikni tartibga solish qisqartirildi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun qabul qilinib, maxsus organ tashkil etildi. Islohotlarga qariyb o‘n yil to‘lgan bugun savol tug‘iladi: qoidalar institutlar sifatini amalda qanchalik o‘zgartirdi va qaysi yo‘nalishlarda o‘zgarish sekin kechmoqda?

Maqolaning maqsadi O‘zbekistonda 2016–2025-yillardagi institutsional islohotlar natijalarini Transparency International Korrupsiyani idrok etish indeksi va Jahon banki Jahon boshqaruv indikatorlari asosida baholash hamda islohotlarning keyingi bosqichi uchun ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Institutlar sifatini o‘lchash murakkab, chunki institut qoidalar va ularning ijro mexanizmlari majmuidir; shu sababli ekspertlar, tadbirkorlar va aholi so‘rovlariga asoslangan kompozit indekslardan foydalaniladi. D. Kaufman, A. Kray va M. Mastruzzi ishlab chiqqan Jahon boshqaruv indikatorlari o‘ttizdan ortiq manba ma’lumotlarini kuzatilmaydigan komponentlar modeli yordamida olti o‘lchovga birlashtiradi [4]. Har bir baho xatolik chegarasi bilan e’lon qilinadi [4]. 2025-yilda metodologiya qayta ko‘rib chiqilib, butun qator qayta hisoblangan [5].

P. Mauro korrupsiya va o‘sish aloqasini mamlakatlararo ma’lumotlar asosida birinchilardan bo‘lib o‘rganib, korrupsiya yuqoriligi investitsiyalarni va o‘sish sur’atlarini pasaytirishini ko‘rsatgan [7].

Islohotlar ketma-ketligi ham keng muhokama qilingan. D. Nort, J. Uollis va B. Vaynqast cheklangan kirishli tartibdan ochiq kirishli tartibga o‘tish faqat rasmiy qoidalarni o‘zgartirish bilan yakunlanmasligini, unda elita kelishuvlari va tashkilotlar mustaqilligi hal qiluvchi ekanini ko‘rsatgan [2]. V. Polterovich islohotlar natijasida samarasiz, ammo barqaror normalar — “institutsional tuzoqlar” shakllanishi mumkinligidan ogohlantirgan [6].

Mahalliy adabiyotda institutsional o‘zgarishlarning nazariy asoslari va O‘zbekistondagi islohotlarning institutsional jihatlari B. Berkinov darsligida yoritilgan [10]. Biroq xalqaro indikatorlarning 2025-yilda qayta ko‘rib chiqilgan qatorlari asosida islohotlarning o‘lchovlar kesimidagi notekisligini tahlil qiluvchi ishlar kam; tadqiqot shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotda ikki manbadan foydalanildi: birinchisi — Transparency International

Korrupsiyani idrok etish indeksi (0–100 shkala, yuqori ball korrupsiyaning pastroq idrok etilishini bildiradi) [8]; ikkinchisi — Jahon boshqaruv indikatorlari bo‘lib, olti o‘lchovni qamraydi: fikr bildirish va hisobdorlik, siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi, hukumat samaradorligi, tartibga solish sifati, qonun ustuvorligi va korrupsiyani nazorat qilish; har bir o‘lchov taxminan −2,5 dan +2,5 gacha shkalada ifodalanadi, jahon o‘rtachasi nolga teng [4; 5]. Ma’lumotlar Jahon bankining rasmiy bazasidan 2026-yil oktabr holatiga olindi [9].

Dinamik, qiyosiy va korrelyatsion tahlil hamda muallif taklif etgan guruhlash usuli qo‘llanildi: hukumat samaradorligi va tartibga solish sifati “qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish salohiyati” (A guruh), fikr bildirish va hisobdorlik, qonun ustuvorligi hamda korrupsiyani nazorat qilish esa “qoidalar ijrosi va hokimiyatning cheklanganligi” (B guruh) o‘lchovlari sifatida birlashtirildi. A va B guruhlari o‘rtacha baholari farqi “ijro bo‘shlig‘i” deb nomlanib, islohotlar qoidalarni o‘zgartirishdan ularning barqaror ijrosiga qanchalik o‘tganini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar

Korrupsiyani idrok etish indeksi bo‘yicha O‘zbekistonning bali 2016-yildagi 21 dan 2023-yilda 33 ga qadar uzluksiz o‘sib, reytingdagi o‘rni 156-o‘rindan 121-o‘ringa ko‘tarilgan (1-rasm). Ammo 2024-yilda ball 32 ga, 2025-yilda 31 ga tushgan, mamlakat 182 davlat orasida 124-o‘rinni egallagan [8]. Mintaqada 2025-yilda Qozog‘iston 96-o‘rinda, Qirg‘iziston 142-o‘rinda, Tojikiston 166-o‘rinda, Turkmaniston 167-o‘rinda joylashgan [8].



1-rasm. O‘zbekistonning Korrupsiyani idrok etish indeksidagi bali va o‘rni, 2016–2025-yillar

Manba: Transparency International ma’lumotlari [8] asosida muallif tuzgan.

1-rasmdan indeks dinamikasini ikki bosqichga ajratish mumkin: 2016–2023-yillarda yillik o‘rtacha o‘sish taxminan 1,7 ballni tashkil etgan, 2024–2025-yillarda esa o‘sish to‘xtab, kichik pasayish kuzatilgan. Bu bir yillik tebranish emas: xuddi shunday turg‘unlik Jahon boshqaruv indikatorlarining bir nechta o‘lchovida ham kuzatiladi.

1-jadval.

O‘zbekistonning Jahon boshqaruv indikatorlari bo‘yicha baholari (−2,5 … +2,5)

O‘lchov	2016	2019	2020	2021	2023	2025	Farq 2016–2025
Fikr bildirish va hisobdorlik	−1,62	−1,54	−1,36	−1,18	−1,10	−1,25	+0,37
Siyosiy barqarorlik	−0,22	−0,23	−0,38	−0,24	−0,24	+0,10	+0,32
Hukumat samaradorligi	−0,67	−0,56	−0,70	−0,26	−0,26	−0,20	+0,47
Tartibga solish sifati	−1,41	−1,02	−1,11	−0,68	−0,67	−0,52	+0,89
Qonun ustuvorligi	−1,06	−0,96	−0,95	−0,67	−0,67	−0,64	+0,42
Korrupsiyani nazorat qilish	−1,27	−1,12	−0,84	−0,65	−0,64	−0,69	+0,58
Olti o‘lchov o‘rtachasi	**−1,04**	**−0,91**	**−0,89**	**−0,61**	**−0,60**	**−0,53**	**+0,51**
A guruh (ishlab chiqish)	−1,04	−0,79	−0,91	−0,47	−0,47	−0,36	+0,68
B guruh (ijro va hisobdorlik)	−1,32	−1,21	−1,05	−0,83	−0,80	−0,86	+0,46
Ijro bo‘shlig‘i (A − B)	**0,28**	**0,42**	**0,15**	**0,36**	**0,34**	**0,50**	**+0,22**


Manba: Jahon banki [5; 9]; guruhlar va ijro bo‘shlig‘i — muallif hisob-kitobi.

1-jadval ma’lumotlari barcha olti o‘lchov bo‘yicha institutlar sifati yaxshilanganini ko‘rsatadi: o‘rtacha baho −1,04 dan −0,53 ga ko‘tarilgan. Eng katta o‘zgarish tartibga solish sifatida (0,89 birlik) qayd etilgan, bu valyuta bozorini erkinlashtirish, soliq stavkalarini pasaytirish va litsenziyalashni soddalashtirish kabi dastlabki islohotlar natijasidir. Hukumat samaradorligi ham sezilarli yaxshilangan, siyosiy barqarorlik esa 2025-yilda ilk bor ijobiy qiymatga chiqqan.

Dinamikani islohotlar xronologiyasi bilan solishtiramiz. 2017-yil sentabrida valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha farmon milliy valyutaning erkin konvertatsiyasini tiklab, ko‘p kursli tizimga barham berdi; 2020-yildan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi soliq yukini pasaytirib, tartiblarni soddalashtirdi, shu yili Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi; paxtada majburiy mehnatga barham berilishi 2022-yil martida o‘zbek paxtasiga qarshi o‘n yildan ortiq davom etgan xalqaro boykotning to‘xtatilishiga olib keldi. Bu qadamlar tartibga solish sifati va hukumat samaradorligining 2017–2021-yillardagi keskin o‘sishi bilan vaqt jihatidan mos tushadi, ammo buni sababiy bog‘liqlik deb talqin qilish uchun qo‘shimcha ekonometrik tahlil zarur.

Shu bilan birga, 2021-yildan keyin qonun ustuvorligi (−0,67 dan −0,64 gacha) va korrupsiyani nazorat qilish (−0,65 dan −0,69 gacha) amalda joyida turib qolgan, fikr bildirish va hisobdorlik esa 2023–2025-yillarda −1,10 dan −1,25 gacha pasaygan. Korrupsiyani nazorat qilish bo‘yicha Jahon boshqaruv indikatorlari bahosi bilan Korrupsiyani idrok etish indeksi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti 2016–2025-yillar uchun 0,93 ni tashkil etdi, ya’ni ikki mustaqil manba bir xil manzarani tasdiqlamoqda.

2-rasmda eng uzun “yo‘l” tartibga solish sifati bo‘yicha bosib o‘tilgani, eng past nuqtada esa hamon fikr bildirish va hisobdorlik turgani ko‘rinadi. Ijro bo‘shlig‘i 2016-yildagi 0,28 dan 2025-yilda 0,50 ga kengaygan: davlat yangi qoidalarni ishlab chiqish va iqtisodiy siyosatni amalga oshirish salohiyatini tez oshirgan bo‘lsa-da, ularning bir xil ijrosini ta’minlovchi mexanizmlar — mustaqil sud, erkin matbuot, parlament nazorati va fuqarolik jamiyati institutlari — nisbatan sekin rivojlanmoqda. Bu Nort, Uollis va Vaynqast tavsiflagan o‘tish muammosiga mos keladi [2].



2-rasm. Jahon boshqaruv indikatorlari bo‘yicha 2016 va 2025-yillardagi baholar taqqoslamasi

Manba: Jahon banki ma’lumotlari [5; 9] asosida muallif tuzgan.

Ijro bo‘shlig‘ining kengayishi iqtisodiy jihatdan ham muhim: investor uchun qonun matni emas, uning sudda va mansabdor tomonidan qo‘llanilishi muhim. Ijro oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lsa, transaksiya xarajatlarining katta qismi saqlanib, “norasmiy kelishuvlar” shakliga o‘tadi, samarasiz normalar esa Polterovich ta’kidlaganidek, institutsional tuzoqqa aylanishi mumkin [6]. Mauro ishiga ko‘ra, korrupsiya nazoratidagi turg‘unlik uzoq muddatda investitsiyalar va o‘sishga salbiy ta’sir qiladi [7].

Cheklovlar quyidagicha: ikkala indeks ham idrok etishga asoslangan (real korrupsiya hajmini emas, ekspertlar va tadbirkorlar baholarini aks ettiradi); Jahon boshqaruv indikatorlarida yillar o‘rtasidagi 0,1–0,2 birlikdagi farqlar xatolik chegarasi doirasida bo‘lishi mumkin [4]. Shu sababli xulosalar ko‘p yillik tendensiya va o‘lchovlar nisbatiga tayanadi.

Xulosa

Xulosalar quyidagicha. Birinchidan, 2016–2025-yillarda institutlar sifati barcha olti o‘lchov bo‘yicha yaxshilangan: o‘rtacha baho −1,04 dan −0,53 ga ko‘tarilgan, Korrupsiyani idrok etish indeksi bali 21 dan 31 ga oshgan. Ikkinchidan, islohotlar notekis kechgan: eng katta yutuqlar tartibga solish sifati va hukumat samaradorligida, qonun ustuvorligi, korrupsiyani nazorat qilish va hisobdorlik esa 2021-yildan buyon turg‘un. Uchinchidan, ijro bo‘shlig‘i 0,28 dan 0,50 ga kengaygan: “qoidalarni o‘zgartirish” bosqichi asosan yakunlanib, “qoidalar ijrosini kafolatlash” bosqichiga o‘tish zarur.

Shundan kelib chiqib, keyingi bosqich uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar taklif etiladi: sudning tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, sud qarorlarini to‘liq ochiq e’lon qilish va ularning bir xilligini ta’minlash; davlat xaridlari, yer ajratish va litsenziyalashda mansabdorlarning diskretsion vakolatlarini raqamli platformalar orqali qisqartirish; normativ hujjat loyihalarini jamoatchilik muhokamasi natijalarini va hisobga olingan takliflar ulushini ochiq e’lon qilish; islohotlar samaradorligini xalqaro indekslar bilan bir qatorda tadbirkorlar o‘rtasida muntazam milliy so‘rovnomalar orqali baholab, natijalarini ochiq ma’lumot sifatida e’lon qilish.

Kelgusi tadqiqotlarda institutlar sifati ko‘rsatkichlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi va hududiy tadbirkorlik faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik usullar yordamida baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.

2. North D.C., Wallis J.J., Weingast B.R. Violence and Social Orders: A Conceptual Framework for Interpreting Recorded Human History. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 308 p.

3. Acemoglu D., Johnson S., Robinson J.A. The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation // American Economic Review. – 2001. – Vol. 91, No. 5. – P. 1369–1401.

4. Kaufmann D., Kraay A., Mastruzzi M. The Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues // World Bank Policy Research Working Paper. – 2010. – No. 5430.

5. World Bank. The Worldwide Governance Indicators: 2025 Methodology Revision. – Washington, DC: World Bank, 2025. – URL: https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators.

6. Полтерович В.М. Институциональные ловушки и экономические реформы // Экономика и математические методы. – 1999. – Т. 35, № 2. – С. 3–20.

7. Mauro P. Corruption and Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1995. – Vol. 110, No. 3. – P. 681–712.

8. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2025: Uzbekistan. – URL: https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan.

9. World Bank. Worldwide Governance Indicators: DataBank (Uzbekistan, 1996–2025). – URL: https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators (murojaat sanasi: 09.10.2026).

10. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: Darslik. – 4-nashr, qayta ishlangan. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.